

GARANGLAR
(Qoraqalpoq xalq ertagi)

Burungi zamonda bir garang yashagan ekan. Uning oltita echkisi bo'lib, ularni sotish uchun bir kuni bozorga haydabdi. Bozorga kelayotib, dam olish uchun o'tiribdi-da, uxlab qolibdi. Uyg'onib qarasa — echkilar yo'q! U tepaning boshiga yuguribdi, bu tepaga yuguribdi, ammo echkilaridan darak topolmabdi.

Shunda garang o'zicha yig'lab: «Echkilarim ichida siniq mo'g'izli ola echkimning suti ko'p edi, topib berganga shuni sadaqa qildim!» — debdi. U yugurib-yugurib, qo'sh haydayotgan dehqonga duch kelibdi. Unga:

— Echkilarimni ko'rdingmi? Oltita edi, bozorga haydab ketayotib, yo'lda uxlab qolibman, echkilarim uloqib ketib qolibdi, ko'rgan bo'lsang, ayt, bir echkimni senga beraman! - debdi.

Qo'sh haydab yurgan dehqon ham garang ekan, echkilarini so'rayotgan odamga:

- Ertalabdan beri huv anovi yerdan shu yergacha haydadim, — deb qo'lini cho'zib ko'rsatibdi. Echki yo'qotgan garang quvonib, u ko'rsatgan tomonga chopib ketibdi. Yugurib bir tepaga chiqsa, echkilar shu tepaning orqasida o'tlab yurgan ekan. Echkilarini dehqonning oldiga haydab kelibdi- da, shoxi siniq ola echkini ushlab:

- Senga ming rahmat! Echkilarim sen ko'rsatgan tepalikning orqasida ekan. Topilsa, suyunchisiga mana shu echkimni beraman, deb ont ichgan edim, bu echki endi seniki, — deb shoxi siniq echkini dehqonning oldiga itaribdi. Shunda qo'sh haydayotgan dehqon:

- Bu echkning shoxini men sindirmadim, o'zim ertalabdan beri bosh ko'tarmay yer haydayapman, echkning shoxini sindirish menga zaril keptimi? Tuhmat qilishga uyalmaysanmi! — debdi.

Echkning egasi:

- Shoxi siniq deb mensimay qoldingmi? Shoxi siniq bo'lsayam, suti ko'p, shuni suyunchiga beraman deb so'z berganman. Boshqalarini bozorga chiqarib sotaman. Shoxsiz ekan deb noz qilavermay, shuni olib qol! — debdi. Dehqon esa:

- Senga necha marta aytay, echkning shoxini urib sindirish tugul, o'zini endi ko'rib turibman, tuhmatni bas qil! — deb, shapaloq tortib yuboribdi. Ikkovi mushtlashuvga kirishib ketibdi. Shu payt bir otliq kelib qolibdi-da, bularni ajratib qo'yibdi.

Echkili kishi:

- Ham echki bersam, ham tayoq yeb ketsam — shu ham insofdanmi, endi berib bo'pman senga, — deb echkilarini haydab ketib qolibdi. Qo'shchi dehqon esa:

- Men sening echkning shoxini sindirib yurishga vaqtim bormi? Yaxshiyam manov odam kelib ajratib qo'ydi, bo'lmasa naq peshonangni urib yorardim, — deb javrab qolaveribdi. Endi qo'shini hayday boshlagan paytda xotini issiq yorma ko'tarib kelibdi. Qo'shchi ko'zadagi yormani ichib o'tirib, xotiniga bo'lib o'tgan voqeani aytib bera boshlabdi, va: «Mana shunday qilib peshonasiga soldim», - deb xotining manglayiga mushtini olib boribdi. Qo'shchining xotini ham garang ekan, erining qo'lidan ko'zani tortib olib:

- Kecha ovqatimni sovib qopti degan eding, bugun pishirib kelganimni issiq deyapsan! Senga mening pishirgan ovqatim hech yoqmadi-yoqmadi-da! Yemasang, mana! — deb ko'zani yerga urib sindiribdi-da, sen bo'lmasang yana bitta garangda, deb yig'lab uyiga ketib qolibdi. Qo'shchi hech narsaga tushunmay qolaveribdi. «Ko'za ham sindi, yorma ham to'kildi, xotinim yig'lab ketib qoldi — bir balo bo'ldi shekilli, anig'ini bilay», deb uyiga qaytibdi. Kelsa, xotini tugunlarini tugib otasining uyiga ketmoqchi bo'lib turgan ekan, yugurib kelayotgan erini ko'rib:

- Mening pishirgan ovqatlarim senga yoqmaydi, goh issiq deysan, goh sovuq deysan — meni haydab yuborishning ilojini topolmay, shuni bahona qilib urmoqchi bo'lding! Ana uying, ana qozon-o'chog'ing, boshingda qolsin! Men ketaman!- deb janjal qila boshlabdi.

Shu payt tegirmondan don tortib kelgan qizi, bularning janjali ustidan chiqib qolibdi. Bu qiz ham garang ekan. Otam bilan onam meni kimgadir uzatmoqchi shekilli, shuning janjali bo'lsa kerak, deb o'ylabdi-da:

- Men yigit tanlab, u yoqadi-bu yoqmaydi deb yurganim yo'q! O'zlaringga ma'qul bo'lsa, to'yni boshlayvering, bitta meni deb janjal qilish shartmi?! Men qachon er tanlovdim?! deb o'tirib yig'lay boshlabdi. Shovqin-suronga yugurib kelgan qo'ni-qo'shnilar janjalning asl sababini bilib, kula-kula tarqashibdi. Asl sababni so'ng eshitib-bilgan garanglar ancha vaqtgacha bir-biridan uyalib yurgan ekanlar.

“Bir qalpoq oltin” kitobidan